

SOHIBQIRON AMIR TEMUR BOBOMIZ

Surayyo Ziyayeva Tursunxodjayeva

Toshkent shahar Sergeli tumani

237-umumiy o`rta ta`lim maktabi Boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yirik sarkarda, davlat arbobi Amir Temurning hayot yo`llari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so`zlar: sarkarda, sohibqiron, tarix, sulola, imperiya.

Amir Temur - dunyoda tarixida juda katta nom qoldira olgan buyuk sarkarda, O`rta asrlarning eng mashhur afsonaviy qo`mondoni, ulkan imperiya asoschisi, Temuriylar sulolasining bosh bo`g`ini, kuchli strateteg va siyosatchi, hayotida davomida biror marta bo`lsa ham raqibga yengilmagan buyuk inson. Sohibqiron Amir Temur-buyuk davlat asoschisi hisoblanadi. U Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo`ltig`iga qadar g`oyat katta hududni qamrab olgan markazlashgan ulkan saltanatga asos soldi. Bundan tashqari Amir Temur davlatiga Kichik Osiyo, Suriya, Misr va shimoliy g`arbda Quyi Volga, Don bo`ylari; shimoliy-sharqda Balxash ko`li va Ili daryosigacha; janubiy sharqda esa Shimoliy Hindistongacha bulgan mamlakatlar buysundirildi. Amir Temur davlatni aql-zakovot va huquqiy asos bilan idora etgan. Uning "... davlat ishlarining to`qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim", degan so`zlari buning yorqin dalilidir. Sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari beqiyosdir. Tarix bu ko`hna dunyoda o`tgan ko`p jahongirlarni biladi. Lekin Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr buyi bunyodkorlik bilan mashg`ul bulgan. Uning "Qay bir joydan bir gisht olsam, o`rniga o`n g`isht qo`ydirdim, bir daraxt kestirsam, o`rniga o`nta kuchat ektirdim", degan so`zlari buning yorqin isbotidir. Amir Temurga har bir zafarli voqea va sevinchli hodisani muhtasham me`morlik obidasi barpo etish bilan nishonlash odat bo`lgan. Shu maqsadda Hindiston, Sheroz, Isfahon va Damashqning mashhur usta hunarmandlari mamlakatda hashamdor imorat-u inshootlar bino qilganlar. Amir Temur zabt etgan mamlakatlarning

bir qator shaharlari (Bag‘dod, Darband, Baylaqon)ni qayta tikladi. Amir Temur Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag‘dodda madrasa, Turkistonda mashhur shayx Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdirgan bo‘lsada, lekin asosiy e’tiborini ona shahri Kesh va poytaxti Samarqandga qaratdi. Keshda otasining qabri ustiga maqbara, o‘g‘li Jahongirga maqbara bilan masjid qurdirdi. Amir Temur hukmronligining ilk davrida Kesh shahrini poytaxtga aylantirish niyatida bo‘lib, uning obodonchiligiga katta ahamiyat berdi, bu yerda mashhur Oqsaroy qad ko‘tardi. Amir Temur Keshni Movarounnahrning madaniy markaziga aylantirishga harakat qildi. Shu boisdan bu shahar “Qubbat ul-ilm val-adab” unvoniga ega bo‘ldi. Saltanat poytaxti Samarqand Amir Temur davrida ayniqsa gullab yashnadi. Shaharda Isfahon, Sheroz, Halab, Xorazm, Buxoro, Qarshi va Kesh shaharlarining me’mor-u binokorlari qo‘li bilan saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar quriladi. Shahar tashqarisida esa bog‘-rog‘lar va bo‘stonlar barpo etiladi. Xususan Shohizinda me’moriy majmuasiga mansub Shodimulk og‘o maqbarasi, Shirinbeka og‘o maqbarasi va boshqa quriladi. Shaharda Bibixonim jome masjidi, Amir Temurning qarorgohi Ko‘ksaroy va Bo‘stonsaroylar qad ko‘taradi. Umuman olganda Samarqand shahri Amir Temur davrida o‘zining qadimiy o‘rni Afrosiyobdan birmuncha januroqda butunlay yangitdan qurildi. Shahar tevaragi mustahkam qal’a devori bilan o‘ralib, *Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So‘zangaron va Feruza* kabi nomlar bilan ataluvchi 6 ta darvoza o‘rnatildi. Movarounnahrning dehqonchilik vohalarida, xususan Zarafshon vodiysida o‘nlab sug‘orish tarmoqlari chiqarilib, dehqonchilik maydonlari kengaytirildi. Yangi qishloqlar barpo etildi. Mashhur tarixchi Ibn Arabshohning yozishicha, Amir Temur Samarqand atrofida qad ko‘targan bir qancha yangi qishloqlarni Sharqning mashhur shaharlari Dimashq (Damashq), Misr, Bag‘dod, Sultoniya va Sheroz nomlari bilan atadi. Amir Temurning fikricha, Samarqand kattaligi, go‘zalligi hamda tevarak-atrofining obod etilganligi jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmog‘i lozim edi.

Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzish yo‘lida kurashdi, Movarounnahrni birlashtirishdan manfaatdor bo‘lgan mahalliy zodagonlardan iborat ijtimoiy kuchlar (mulkdor dehqonlar, harbiylar, hunarmandlar, savdogarlar va ruhoniylar) yordamida tarqoq mulklarni birlashtirish uchun kurash olib bordi. Amir Temurning bu

davrdagi faoliyati Oʻrta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti taraqqiyoti yoʻlida shubhasiz ulkan ijobiy ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda tarqoqlik tugatilib, markazlashgan davlatning tashkil topishi ijobiy oqibatlarga olib keldi. Xoʻjalikning asosi boʻlgan dehqonchilikda muayyan siljishlar roʻy berdi. Yangi-yangi ariq (kanal)lar qazilib, dehqonchilik maydonlari kengaydi. Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivojlandi, fan va madaniyat ravnaq topib, shaharlar obodlashdi va gavjumlashdi. Amir Temur biror mamlakatni tasarrufiga olishdan avval albatta oʻsha joy aholisiga tinchlik yoʻlini taklif etgan, bu yoʻl inkor etilgan holdagina harbiy kuch ishlatgan.

Amir Temur hayotligi chogʻidayoq saltanatni asosan toʻrt qism (ulus)ga boʻlib, oʻgʻil, nabiralarga taqsimlab bergan: Xuroson, Jurjon, Mozandaron va Seyiston (markazi Hirot) Shohruxga, Gʻarbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armaniston (markazi Tabriz) Mironshohga, Fors, yaʼni Eronning janubiy qismi (markazi Sheroz) Umarshayxga, Afgʻoniston va Shimoliy Hindiston (markazi Gʻazna, keyinchalik Balx) Pirmuhammadga berilgan. Amir Temur davlati oʻziga xos tartib-qoidalarga asoslangan holda idora etilgan. Amir Temur asos solgan bu davlat Xuroson va Movarounnahrda XVI asr boshigacha mavjud boʻlib, Shayboniyxon tomonidan tugatilgan. Shunday qilib, XIV asrning ikkinchi yarmidan XVII asrgacha bulgan davr Movarounnahrda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yuksalish davri buldi. Markazlashgan davlatning asoschisi Amir Temur uz imperiyasini tuzib, uning iqtisodiy va madaniy qudratini yuk'saklikka kutardi. Uni Ovroq Ba Sharqda eng qudratli davlatga aylantirishga erishdi. Har yili 9-may yurtimizda Amir Temur tavalludi keng nishonlanib kelmoqda. Shu sababli, Toshkent shahar Sergeli tumani

237-umumiy oʻrta taʼlim maktabda Amir Temur tavalludiga bagʻishlangan tadbir boʻlib oʻtdi. Ushbu tadbirda barcha oʻquvchilar juda ham faol qatnashdilar.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.Yaxshilikov. Sh.Axadov. Temiriylar ma'naviyati. Toshkent. Fan nashriyoti - 1999
2. S.Mamashokirov. Sh.Tog'ayev. Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. Toshkent. Ma'naviyat, 2007 yil.
3. B.Axmedov, A.Aminov. "Temur tuzuklari". Toshkent – 2007.